



YORDAMCHI SO‘ZLARNING QO‘LLANISH DAVRIGA KO‘RA SARALOVCHI LINGVISTIK TA‘MINOT VOSITASINI TUZISH MASALALARI.

Shahlo Hamroyeva Mirdjanovna,

Filologiya fanlari doktori, professor v.b.

shaxlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz

ToshDO‘TAU

Qodirova Madinabonu Murodjon qizi,

Tayanch doktorant

begonammm@gmail.com

ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlarning tarixiy rivojlanishi, ularning turli davrlardagi qo‘llanilishi va o‘zgarish jarayonlari tahlil qilinadi. O‘zbek tilining shakllanishidan boshlab hozirgi kungacha bo‘lgan davr mobaynida yordamchi so‘zlarning ma‘lum qismining iste‘moldan chiqishi, ayrimlarining esa yangi shakllarda paydo bo‘lishi lingvistik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq ekani ko‘rsatiladi. Maqolada arab, fors va Yevropa tillarining ta‘siri ostida yordamchi so‘zlar tizimining qanday o‘zgarishlarga uchragani tarixiy manbalar asosida o‘rganilgan. Ushbu tadqiqot natijalari mashina tarjimas, tarixiy tilshunoslik hamda zamonaviy leksikografiya sohalarida qo‘llanilishi mumkin.

Abstract. This article analyzes the historical development of auxiliary words in the Uzbek language, their use in different periods and the processes of change. It is shown that the disappearance of a certain part of auxiliary words from use, and the emergence of some in new forms during the period from the formation of the Uzbek language to the present day, is associated with linguistic and social factors. The article studies the changes in the system of auxiliary words under the influence of Arabic, Persian and European languages, based on historical sources. The results of this study can be used in the fields of machine translation, historical linguistics and modern lexicography.

Аннотация. В данной статье анализируется историческое развитие вспомогательных слов в узбекском языке, их использование в разные периоды и процессы изменения. Показано, что за период от формирования узбекского языка до наших дней часть вспомогательных слов вышла из употребления, а часть из них появляется в новых формах вследствие языковых и социальных факторов. В статье на основе исторических источников рассматривается, как претерпевала изменения система вспомогательных слов под влиянием арабского, персидского и европейских языков. Результаты исследования могут быть использованы в области машинного перевода, исторической лингвистики и современной лексикографии.

Kalit soʻzlar: *grammatik shakl, grammatik maʼno, til tarixi, leksik oʻzgarishlar, grammatik evolyutsiya, mashina tarjimasi, lingvistik davrlashtirish.*

KIRISH

Til tarixiy taraqqiyot jarayonida doimiy ravishda oʻzgarib boradi. Bu oʻzgarishlar ayniqsa, lugʻat tarkibida, xususan, yordamchi soʻzlar tizimida yaqqol namoyon boʻladi. Oʻzbek tilida yordamchi soʻzlar turli davrlarda turlicha qamrov va shakllarga ega boʻlib, arab, fors va Yevropa tillarining taʼsiri ostida muayyan oʻzgarishlarga uchragan. Tarixiy manbalar shuni koʻrsatadiki, baʼzi yordamchi soʻzlar asta-sekin isteʼmoldan chiqib ketgan, baʼzilari esa yangi shakllarda tilimizga singib borgan.

Matn tarjimasi jarayonida soʻzlarning tarixiy qoʻllanilish davriga eʼtibor qaratish muhim sanaladi. XX asr boshlariga oid matnni bugungi kunda tarjima qilishda, oʻsha davrda qoʻllangan yordamchi soʻzlardan foydalanish matnning asliyatga yaqin boʻlishini taʼminlaydi. Shu sababli, oʻzbek tilining turli davrlarda ishlatilgan yordamchi soʻzlarini lingvistik jihatdan tadqiq qilish va ularni davrlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi[1]. Ushbu maqolada oʻzbek tilidagi yordamchi soʻzlarning tarixiy rivoji, ularning davrlarga ajratilishi va til tizimidagi oʻrni tahlil qilinadi.

Bir tildagi matnni boshqa tilga tarjima qilishda uning tarkibidagi soʻzlarning qoʻllanilish davriga eʼtibor qaratish muhimdir. Deylik, XX asr boshlarida yozilgan matnni boshqa tilga oʻgirish uchun maqsadli tildan ham XX asr boshlarida qoʻllangan soʻzlar bazasiga murojaat qilishga toʻgʻri keladi. Oʻzbek tilidagi soʻzlarning maʼlum davrlarda qoʻllanilishini aks ettiruvchi lingvistik taʼminot vositasini tuzish shu sababli mashina tarjimasi uchun muhimdir.

Oʻzbek tili leksikasi, xususan, yordamchi soʻzlar tizimi taraqqiyotning turli davrlarida turlicha qamrovga ega boʻlgan. Arab, fors va yevropa tillarining taʼsirida yordamchi soʻzlar tizimida turli oʻzgarishlar kuzatilgan: yangi soʻzlar qabul qilingan, maʼlum soʻzlar isteʼmoldan chiqqan yoki shakliiy oʻzgarishlarga uchragan. Ularni tahlil qilish mashina tarjimasi uchun muhimdir.

Oʻzbek tili tarixiyligi jihatidan turlicha tasnif qilinadi.

Tilshunos olim R.Sayfullayeva oʻzbek tilini quyidagicha davrlashtiradi[2]:

V – XIV asrlar: oʻzbek tilining ilk taraqqiyot davri

XIV – XIX asrlar: oʻzbek tilining takomillashish davri

XIX – XX asrlar: milliy adabiy tilning shakllanish davri

XX – XXI asrlar: oʻzbek milliy adabiy tili davri.

Shuningdek, ayrim olimlar oʻzbek tili tarixini quyidagicha davrlashtirishadi:

1. Qadimiy o'zbek tili: turkiy tildan o'zbek tilining ajralib chiqishi va o'zbek atamasining paydo bo'lishigacha bo'lgan davr.
2. XV-XIX asrlar: bu bosqichda o'zbek tilining madaniy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishi o'rganiladi.
3. XX asrning boshlari: Bu davrda o'zbek tilining turli jihatlarida o'zgarishlar va rivojlanishlar ko'p o'rganiladi. Rasmiy til, adabiyot til, axborot tilining o'zgarishlari va modernizatsiyasi bu davrda katta ahamiyatga ega.
4. XX asrning o'rtasi -1991: Sovet davri
5. 1991-yildan hozirgacha: O'zbek tilining mustaqil davrida o'zgarishlar, yangi so'zlar, yangi ifodalarni yaratish, adabiyotning rivojlanishi davri [3].

Shu va shu kabi manbalarga asoslangan holda va o'zbek tilidagi grammatik shakllarining o'ziga xosliklarini hisobga olib, yordamchi til birliklarini davriy jihatdan quyidagicha guruhlab lingvistik bazaga kiritishni taklif etamiz:

- V –XIV asrlar: o'zbek tilining shakllanish davri
- XV – XX asrlar: o'zbek tilining takomillashuvi va milliy adabiy tilning shakllanish davri
- XX asr oxiridan – hozirgi kungacha: o'zbek milliy adabiy tili davri.

Tilimizdagi yordamchi til birliklari sinonimik qatorlaridagi so'zlar ushbu uchdavrda oid-oid emasligiga ko'ra ham farqlanadi.

Shunga ko'ra so'zlarni davrlashtirishda har bir davrga oid manba tanlab olindi va yordamchi so'zlarning qo'llanishi tahlil qilindi. Chunonchi, o'zbek tilining shakllanish davrida yordamchi so'zlarning qo'llanishini o'rganish uchun Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy”, “Tafsir” asarlari, XV–XX asrga oid so'zlarni tekshirish uchun “Boburnoma”, “Shajarayi turk”, Muqimiy va Abdurauf Fitrat asarlari, o'zbek milliy adabiy tili davri uchun G'.G'ulomning “Shum bola”, U.Hamdanning “Muvozanat” asarlari tanlab olindi.

Shart ma'nosini bildirgan agar so'zi XI–XII asrlarga oid yodgorliklarda ham iste'molda bo'lgan. Lekin uning qo'llanishi XIII–XIV asrlardan boshlab kengaya borgan. Uning agarche shakli XV asrdan boshlab keng qo'llangan bo'lib, XIII–IV asrlarga oid yodgorliklarning ayrimlarida ham uchrab turadi. Gar shakli XIII–XIV asrlardan XX asrgacha faol, so'ng faqat she'riy asarlarda ishlatilgan. Shuningdek, XVIII–XIX asrlarda garchand shakli iste'molda bo'lgan. XVI–XVIII asrlarda harchand shaklida ham ishlatilgan. XIX asrdan boshlab esa agarda va garchi shaklida ham qo'llana boshlagan. Qolaversa, XI–XII asrlardan boshlab magar shakli ham ishlatilgan va XVIII–XIX asrlargacha iste'molda bo'lgan. Basharti so'zi ham XIII–XIX asrlarda shart ma'nosini ifodalagan.

Masalan,

Agar qolaman desalaring, oldi qish, ovqat-ozuqlaring bemalol. (G'.G'ulom)

Agarche mardanarag'i bar edi, vale bir nima telbarak va go'l kishi edi (BN).

Tüynügiydin agarda chiqsa tutun

Munda ber dastmáyalarin butun (Muqimiy).

In'om bo'ldi sizga garchand Toshkantdin

Bergaymu-dik deganda Shayxantaxur fanus (Muqimiy).

Garchi pochcham bilan katta opamlar o'qituvchilik qiladigan maktab dadamlar ishlaydigan mahkamadan xiyla narida bo'lsa-da, avval o'sha tomonga o'tdim. (O.Yoqubov)

Gar qilich báshima ham kelsá, degáymen rástini (Muqimiy).

Hozirgi kunda iste'molda bo'lgan –mi, -chi, -a, -ya so'roq yuklamalaridan –mi yuklamasi, ham, hatto, hattoki, nahot, nahotki, axir, g'irt, -(y)oq kuchaytiruv-ta'kid yuklamalaridan ham, hatto, nahotki; faqat, atigi, xolos, -gina ayiruv-chegaralov yuklamalaridan faqat; hech, sira, na...na inkor yuklamalaridan hech; o'xshatish-qiyoslash yuklamalaridan xuddi o'rganilayotgan barcha davrlarda mavjud bo'lgan. Go'yo(ki), na, bamisli, misoli, axir, hatto yuklamalari XVI – XVII asrlardan boshlab kirib kelgan bo'lsa, lim, liq, jiqqa, qip, nim kabi belgini kuchliligini bildiruvchi yuklamalar, -chi, -a, -ya so'roq yuklamalari, sira, also inkor yuklamalari, aynan o'xshatish yuklamasi tilimizga XIX asrdan boshlab kirib kelgan. A bog'lovchisi XX asrdan boshlab qo'llana boshladi.

Qovun tanlashda didim yo'q. A siz-chi?

Zidlik ma'nosini bildiruvchi bog'lovchilardan ammo, lekin bog'lovchilari XI asrdan ishlatila boshlagan bo'lsa, biroq so'zi XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridan boshlab asarlarda ko'zga tashlana boshladi. XVI – XIX asrlargacha balkim shaklida ishlatilgan balki so'zining bu shaklda ishlatilishi XX asrdan boshlab kuzatiladi[1].

Eski turkiy til davri (XI asr)dan boshlab hozirgacha faol ishlatilib kelinuvchi yordamchi so'zlarga ammo, atab, avval, ba'zan, beri, bo'yi, bo'ylab, -dir, esa, gina, ham, ichida, kabi, keyin, lekin, oldin, orqali, orqasidan, osha, qarab, -sa, sari, uchun, tomon, tepasida, va, yonida so'zlari hisoblanadi.

Birgalik ma'nosini ifodalagan bilan so'zi qadimdan mavjud bo'lib turli variantlarda ishlatilib kelingan.

bila	qadimdan XIII - XIV asrlargacha	Men qolurman dod bila, faryod bila
birla	qadimdan XIV - XV asrlargacha	Kuchuk birla xo'tukni qancha qilma tarbiyat (Navoiy)

birlan	XVI—XIX asrlar	Siz birlan faxr eturmiz
ila	XV asrdan XVIII asrgacha	Jan hasrat ila kuydi (Lutfiy)
bilan	XIX asrdan boshlab	Sen bilan safimiz yana zich, azim.

Mustasnoqlik ma'nosini bildirgan bo'lak, tashqari so'zlarining ko'makchi vazifasida qo'llanishi nisbatan keyingi davrlarga to'g'ri keladi. Ushbu ma'noni ifodalash uchun qadimgi turkiy tilda azin, adin so'zlari ishlatilgan bo'lsa, XV–XVI asrlardan boshlab ayru yordamchisi ishlatila boshlandi. Boshqa, o'zga so'zlari nisbatan avvalroq: XIII–XIV asrlarga oid ayrim manbalarda uchraydi, biroq XV asrdan kengaya boshlagan.

O'zbek tili taraqqiyoti davomida ayrim yordamchi so'zlar butunlay iste'moldan chiqqan. Ular:

ashnu	varna	tabaru
taqi	usk	ar
dag'i	asra	ayru
ma	burun	kezin
o'tru	burna	tegru
azin	bikin	la
azu	taba	

Ayrimlari taraqqiyot davomida fonetik o'zgarishlarga uchragan:

Tovush tushishi	Tovush almashishi	Tovush ortishi	Ikki so'zning qo'shilishi
magar => agar	tuba => teba => tepa	uza => uzra	to + ki
agarche => garchi	kezin => kedin => keyin	chun => uchun	chun + ki
birlan => bilan	kibi => kabi	bila => birla => birlan	yo + ki
chunkim => chunki	alt => old	o'ng => so'ng	va + gar + na
Balkim => balki	teb => deb		
	harchand => garchand		

Ba'zi yordamchi so'zlar tilimizga XIX asrdan boshlab kirib kelgan:

Umuman olganda, yordamchi so'zlarni tadqiq qilish davomida ularning o'zbek tiliga kirib kelishi, ayrim o'zgarishlarga uchrashi, iste'moldan chiqishi ma'lum lisoniy va nolisoniy omillarga bog'liq ekanligi ko'zga tashlanadi. Bu omillarga quyidagilar kiradi:

XI asrdan Sharq Uyg'onish davri boshlanib, arab tili va madaniyatining keng yoyilishi natijasida o'zbek tilining lug'at sathi boyidi, arabcha o'zlashmalar kirib

kela boshladi. Qo'shni mamlakatlar bilan yaqin qo'shnichilik aloqalari sababli forscha o'zlashmalar ham o'zlashtirildi[4].

XV – XVIII asrlarda Temuriylar davridan boshlangan ilm-fan, adabiyot, madaniyat rivoji til rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Tilda yordamchi so'zlardan foydalanish kengaydi. Keyingi xonliklar davrida esa a Aniq va tabiiy fanlar rivoji susaygan bo'lsa-da, tarix, adabiyot sohalari rivojlangan. Tilga yangi o'zlashmalar kirib keldi, ayrimlari iste'moldan chiqdi. Jumladan yordamchi so'zlarning qo'llanishi kengaydi.

XIX asr – podsho Rossiyasi bilan aloqalar kuchayishi va Markaziy Osiyoning istilo qilinishi bilan Yevropa tillaridan o'zlashmalar kirib kela boshladi.

XX asr – Yevropa tillari bilan aloqalarning kuchayishi natijasida yordamchi so'zlarning qo'llanishi va ma'nolarining kengayishi kuzatiladi.

So'zlarning o'zbek tilida qo'llanishini davrlashtirishda shu omillar hisobga olindi va quyidagicha guruhlandi:

XI -XII	XIII-XIV	XV-XVIII	XIX	XX
		tortib	tortib	tortib
tub	tub	tub	tub	
			tufayli	tufayli
-u (-yu)	-u (-yu)	-u (-yu)	-u (-yu)	-u (-yu)
uchun	uchun	uchun	uchun	uchun
ustida	ustida	ustida	ustida	ustida
		uzra	uzra	uzra
va	va	va	va	va
	valekin	valekin	valekin	valekin
		xoh	xoh	xoh
			xolos	xolos

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek tilidagi yordamchi so'zlarning tarixiy taraqqiyoti murakkab va uzoq jarayon bo'lib, turli davrlarda ularning shaklanishi, qo'llanishi va iste'moldan chiqishi muayyan lingvistik va nolisoniy omillarga bog'liq bo'lgan. Til rivojiga Sharq Uyg'onish davridan boshlab arab va fors tillarining ta'siri, XV-XVIII asrlardagi adabiy va ilmiy taraqqiyot, XIX asrda Rossiya bilan aloqalarning kuchayishi hamda XX asrdagi modernizatsiya jarayonlari sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan.

Yordamchi so'zlar tarixiy manbalar orqali o'rganilib, ularning davriy tasnifi taklif etildi. O'zbek tilining turli davrlarida ma'lum yordamchi so'zlarning paydo bo'lishi yoki iste'moldan chiqishi aniqlanib, ularning semantik va grammatik jihatdan o'zgarishlari yoritildi. Ushbu tadqiqot natijalari kelgusida mashina tarjimasi



va tarixiy tilshunoslik sohalarida qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, tilning doimiy rivojlanishini hisobga olgan holda, yordamchi so'zlar tizimidagi o'zgarishlarni yanada chuqurroq tahlil qilish ham dolzarb masala bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Sayfullayeva R. R., Mengliyev B. R., Boqiyeva G. H., Qurbonova M. M., Yunusova Z. Q., Abuzalova M. Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent-2010
3. Karimov S. O'zbek tilining shakllanish tarixi. – Samarqand: Samarqand Davlat universiteti nashriyoti, 2012.
4. Qosimov U. O'zbek tili tarixiy leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1987.
5. Rahmatullayev Sh Hozirgi adabiy o'zbek tili TOSHKENT-2006
6. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
7. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 2008.
8. Fitrat A. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1929.
9. G'ulom G'. Shum bola. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
10. Yoqubov O. Tilla baldoq. – Toshkent: Sharq, 2001.
11. Hamdam U. Muvozanat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016.